

Qadambayeva Ozoda Umid qizi
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti
Yurisprudensiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi
gadamboyevoazoda2@gmail.com +998912762927
Ilmiy rahbar: Rahimjonov Akmaljon Bahromjon o'g'li

YANGI O'ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLAR HUQUQI, GENDER TENGLIGI MASALALARI VA XORIJ TAJRIBASI

Annotatsiya: Ushbu maqolada gender tengligi masalalari, xotin-qizlarning har jahhada huquq va erkinliklarini ta'minlash, bu borada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinadi. Tahlillar davomida amaliy misol sifatida bu sohada qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, xorijiy mamlakatlar tajribasi o'rganilib chuqur mulohazalar olib boriladi.

Kalit so'zlar: Gender tenglik, huquq va imkoniyatlar, ijtimoiy adolat, davlat siyosati, konstitutsiyaviy qonunlar, xorij tajribasi.

KIRISH

Dunyo rivojining hozirgi davrida inson taraqqiyoti, uning huquq va erkinliklari, ijtimoiy adolat va inson xavfsizligini ta'minlash borasidagi jarayonlar uchun ayollar va erkaklarning jamiyat hayotining barcha jabhalaridagi tengligini amalda ta'minlash masalalari ustuvor vazifalarning biriga aylanmoqda[1]. Bu borada mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini, gender tenglikni ta'minlash, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, ular uchun yangi ish o'rinnari yaratish, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash yuzasidan qator sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda. Bu, o'z navbatida, jamiyatning eng asosiy jabhalari – siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy sohalarda ayollar nufuzi, har bir sohada faolligi ortishiga, jamiyat hayotidagi ishtiroki yil sayin kengayishiga xizmat qilmoqda. Jumladan, Harakatlar strategiyasi doirasida har yili qabul qilinayotgan Davlat dasturlarida ayollar huquqlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish, ayollarni himoya qilishning institutsional asoslarini mustahkamlash hamda aholining gender tenglik to'g'risidagi xabardorligini oshirishga qaratilgan ustuvor chora-tadbirlar belgilanib, izchil amalga oshirib kelinmoqda. Xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, ularga qarshi barcha turdag'i kamsitishlarni yo'q qilish nafaqat inson huquqlarini himoya qilish nuqtai nazaridan muhim, balki boshqa sohalar rivojlanishiga ta'sir etuvchi kuchli omillardan biridir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

So'nggi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarga erishish, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ularning teng ravishda ishtirok etishini ta'minlash, xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularni tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilish sohasida bir qator islohotlar amalga oshirildi, normativ-huquqiy hujjatlar, dasturlar qabul qilindi va amaliyotga tatbiq etilmoqda. Bosh qomusimiz hisoblanmish Konstitutsiyamizning 58-moddasida[2] "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar", "Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlaydi" – deya keltirib o'tilgan. Bu esa mamlakatimizda haqiqatdan ham erkaklar va xotin-qizlar uchun teng imkoniyat va sharoitlar yaratib berilayotganligidan dalolat beradi. "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" gi Qonuning 6-moddasida[3] ham xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash kafolatlari keltirilgan ya'ni

Davlat xotin-qizlar va erkaklarga shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni amalga oshirish chog‘ida teng huquqlilikni, jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, saylov jarayonida teng ishtirok etishni, sog‘liqni saqlash, ta’lim, fan, madaniyat, mehnat va ijtimoiy himoya sohalarida, shuningdek davlat va jamiyat hayotining boshqa sohalarida teng huquq hamda imkoniyatlardan ta’milishini kafolatlashi mustahkamlab qo‘yildi. Xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasida haqiqiy tenglikka erishish, jamiyat hayotining barcha sohalarida ularning ishtirokini kengaytirish, jins bo‘yicha bevosita va bilvosita kamsitishni bartaraf etish hamda ularning oldini olish maqsadida davlat tomonidan gender siyosati amalga oshirilishini ta’milashga doir vaqtinchalik maxsus choralar ko‘riladi. Xususan, hozirgi vaqtida Gender tenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, ushbu sohaga oid 25 ta qonunchilik hujjati qabul qilindi, birgina BMT doirasida qator xalqaro shartnomalar, xususan, “Inson huquqlari umumajhon deklaratsiyasi”, “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida”gi, “Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida”gi xalqaro paktlar, “Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida”gi konvensiya, Pekin deklaratsiyasi va Harakatlar platformasi kabi o‘nlab xalqaro hujjat qabul qilingan. Ular gender tenglik va adolat tamoyillarini o‘zida aks ettirishi, o‘zaro bog‘liqligi, bir-birini taqozo etishi va to‘ldirishi hamda hayotiyligi bilan ajralib turadi. Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo‘yicha respublika komissiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi tashkil etildi. O‘zbekiston tarixida ilk marotaba parlamentda xotin-qizlar soni BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetib, parlamentdagi xotin-qizlar soni qariyb 32 foizga yetdi va dunyodagi 190 ta parlament orasida 37-o‘ringa ko‘tarildi. Xotin-qizlarni ijtimoiy-iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash, ular bilan manzilli ishlash maqsadida “Ayollar daftari” tizimi joriy etilib, Davlat budgetidan har yili 300 mlrd so‘m mablag‘ ajratib borish yo‘lga qo‘yildi. Ota-onasi yoki ularning biridan ayrilgan muhitoj qizlar, boquvchisi yo‘q yolg‘iz ayollarning o‘qish to‘lovlarini qoplab berish tizimi joriy etilib, oliy o‘quv yurtlariga qabul qilishda ehtiyojmand oilalar qizlari uchun grantlar soni ikki baravarga ortdi. BMT Bosh Assambleyasining 2015-yilning sentyabrida Barqaror rivojlanish bo‘yicha o‘tkazilgan sammitida 70-ton rezolyutsiyasi qabul qilinib, mamlakatimiz uchun dolzarb hisoblangan 16 ta milliy maqsadga erishish bo‘yicha 125 ta maqsadli vazifa ishlab chiqilgan. Xususan, barqaror rivojlanish sohasidagi 5-maqсад — Gender tenglikni ta’milash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish mamlakatimizda xotin-qizlar va erkaklarning teng huquq hamda imkoniyatlarini ta’milashga qaratilgan islohotlar bilan hamohangdir[4]. Shuningdek, Gender tengligi sohasida xorijiy mamlakatlardagi holatlarni, ko‘rsatkichlarni ham tahlil qiladigan bo‘lsak, bu masalalarda eng tolerant davlatlar bu — Shimoliy Evropa mamlakatlari: Islandiya (87,7 foiz), Norvegiya (84,2 foiz), Finlyandiya (83,2 foiz) va Shvetsiya (82,0 foiz). Top-10 ro‘yxatdan Nikaragua (80,4 foiz), Yangi Zelandiya (79,9 foiz), Irlandiya (79,8 foiz), Ispaniya (79,5 foiz), Ruanda (79,1 foiz) va Germaniya (78,7foiz) o‘rin olgan. AQSh esa ro‘yxatning 53-o‘rinni egallagan. Reytingning oxiridan Pokiston (56,4 foiz), Iraq (53 foiz) va Yaman (49,4 foiz) o‘rin olgan.

Bugungi kunga kelib Ispaniya, Finlyandiya va Fransiya kabi davlatlar boshqaruv lavozimlarida ayollarning ulushi 50% tashkil etmoqda. Avstriya, Belgiya va Qo‘shma Shtatlar ham hukumat tarkibidagi ayollar soni 2017-yildan beri sezilarli oshgan, ushbu ko‘rsatkich 29%dan ko‘proqni qayd etib kelmoqda[5] **Fransiyada** Konstitutsiyasining 1-moddasida “Qonun xotin-qizlar va erkaklarning saylov mandatlari va saylanadigan lavozimlardan, shuningdek, mas’uliyatli kasbiy va ijtimoiy mansablaridan teng foydalanishiga ko‘maklashadi”, deb ta’kidlangan bo‘lsa, 3-moddasida “Qonunda belgilangan shartlarga muvofiq o‘zlarining fuqarolik va siyosiy huquqlaridan foydalanuvchi har ikki jinsdagisi voyaga yetgan barcha fransuz fuqarolari saylovchilar hisoblanadi” va 4-moddada siyosiy partiyalar va uyushmalar “qonunda belgilangan shartlarga muvofiq 1-moddaning 2-bandida bayon etilgan tamoyilning amalga oshirilishiga” ko‘maklashishlari borasidagi normalar ko‘rsatilgan. **Avstriya** Konstitutsiyasining 7-moddasida bunday qayd etilgan: “Federatsiya, shtatlar va munitsipalitetlar erkaklar va ayollarning de-fakto

tengligini qo'llab-quvvatlaydi. Ayollar va erkaklarning de-fakto tengligini ta'minlashga, xususan, real hayotdagi tengsizliklarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarga ruxsat etiladi”[6]. **Finlandiyada** Ayollar va erkaklar tengligi to‘g‘risidagi qonun birinchi marta 1986- yilda kuchga kirgan. Qonunning birinchi moddasida aytishicha, ushbu qonunning maqsadi “gender asosidagi kansitishning oldini olish, erkaklar va ayollar o‘rtasidagi tenglikni qo'llab-quvvatlash va shu tariqa ayollarning mavqeini oshirish; ayniqsa ish hayotida”. Qonunning ikkinchi moddasida bu qonun diniy jamoalar va oilaviy hayotga nisbatan qo'llanishi mumkin emasligi ko'rsatilgan. To‘rtinchı bo‘limda barcha hokimiyat organlari gender tengligini ta'minlashga harakat qilishi kerakligi ta'kidlangan[7]. **Turkiya** qonunchiligidagi mavjud bo‘lgan “Inson huquqlari va tenglik instituti” qonuni esa kansitish, uning turlari va mamlakatdagi kansitishlarga qarshi kurashni belgilaydi. 1-moddadagi qonunning maqsadi “...inson qadr-qimmatiga asoslangan inson huquqlarini himoya qilish va rivojlantirish, shaxslarga teng munosabatda bo‘lish huquqini kafolatlash, qonun bilan e’tirof etilgan huquq va erkinliklarni amalga oshirishda kansitishning oldini olishdir. Qonunning 2-bo‘limi kansitishga qarshi kurash deb nomlanib, ushbu bo‘limning 3-moddasida “Ushbu Qonun amal qilish doirasida jinsi, irqi, rangi, tili, dini, e’tiqodi, mazhabi, falsafiy va siyosiy qarashlari, millati, boyligi, tug‘ilishi, oilaviy ahvoli, sog‘lig‘i, maqomi, nogironligi va yoshiga qarab kansitish taqiqlanadi”. Shunday qilib, gender asosidagi kansitishning taqiqlanishi ushbu qonun bilan kafolatlangan[8].

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, bugungi kunda mamlakatimizda, xorijiy davlatlarda amalga oshirilayotgan islohotlar inson manfaatlari ustunligini ta'minlash barobarida jamiyatda xotin-qizlar mavqeini oshirish, ularning huquq hamda imkoniyatlarini ustuvor qadriyatlardan biri sifatida himoya qilishga qaratilgan. Bu borada Prezidentimiz tomonidan BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashining 46-sessiyasidagi nutqida “Biz gender siyosati masalalari borasida mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida va ishbilarmonlik sohasida ayollarning rolini tubdan oshirishga qaratilgan ishlarni qat’iy davom etamiz”, deya ta'kidlaganlari ham bejiz emasdir. Zero, mamlakatda gender tenglikni ta'minlash, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, mavqeini yanada kuchaytirish masalasi jamiyat barqarorligini ta'minlashning asosiy vazifasi hisoblanadi.

REFERENCES

1. Xotin-qizlar huquqlari va gender tenglik islohotlar zamirida. <https://uzmarkaz.uz/en/news/xotin-qizlar-huquqlari-va-gender-tenglik-islohotlar-zamirida> 2. 30.04.2023. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi <https://lex.uz/docs/6445145>
3. O‘RQ-562-соҳ 02.09.2019. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida <https://lex.uz/docs/-4494849>
4. SQ-297-IV-соҳ 28.05.2021. 2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida <https://old.lex.uz/uz/docs/-5466673?ONDATE=28.05.2021>
5. <https://daryo.uz/2019/12/18/ozbekiston-gender-tengligi-boyicha-reyting>
6. <https://parliament.gov.uz/articles/822>
- 7.<https://acikerisim.nku.edu.tr/xmlui/bitstream/handle/20.500.11776/3962/0068623.pdf?sequence=1&isAllowed=y>
8. TÜRKİYE'DE CİNSİYET EŞİTLİĞİ SÖYLEMİ VE UYGULAMALARI: KARŞILAŞTIRMALI ANALİZ TEKİRDAĞ-2020: Tuğçe ARTAR